YASHIL IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

TOSHKENT MENEJMENT VA IQTISODIYOT INSTITUTI

# BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA XORIJIY TAJRIBA

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO‘PLAMI

2024-yil 18-oktabr

2024
№7-SON
MAXSUS SON

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**

**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** t.f.d., prof., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri
**Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya,** TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten, Turkiya parlamenti a’zosi,** Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** i.f.d., prof., O‘zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta’lim muassasalari va markazlar bo‘yicha prorektor v.b.
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** i.f.d., TDIUprofessori
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** i.f.n., TDIU professori
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** t.f.d., Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti professori
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** i.f.d., prof., Xalqaro “Nordik” universiteti rektori
**Axmedov Ikrom Akramovich,** i.f.d., TSUE professori
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farxod,** O‘zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** i.f.d., TDIU professori
**Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. profesor**
**Musayeva Shoira Azimovna,** SamDu IS instituti professori
**Cham Tat Huei,** ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** i.f.d., O‘zR Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
**Axmedov Javohir Jamolovich,** i.f.f.d.,(PhD) “El-yurt umidi” jamg‘armasi ijrochi direktori o‘rinbosari
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** t.f.f.d.(,PhD) TAQU katta o‘qituvchisi
**Djudi Smetana,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Krissi Lyuis,** p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
**Ali Konak (Али Кўнак),** i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
**Glazova Marina Viktorovna,** i.f.n., “LUKOIL-Energoservis” Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
**Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o‘g‘li,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Rae Kwon Chung,** honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

**Osman Mesten,** member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Sayfullo Normatovich** CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich,** DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

**Siddikova Sadokat Ghaforovna,** PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Samadov Askarjon Nishonovich,** CSc, Prof., of TSUE

**Slizovsky Dimitriy Yegorovich,** DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

**Akhmedov Ikrom Akramovich,** DSc, Prof., of TSUE

**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli,** DSc, Prof., of TSUE

**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

**Ochilov Farkhod,** Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

**Eshtayev Alisher Abduganievich,** DSc, Prof., of TSUE

**Hakimov Nazar Hakimovich, PhD in Philology, Professor.**

**Shoira Azimovna Musaeva,** professor of SamDu IS Institute

**Cham Tat Huei,** PhD, professor at USCI University, Malaysia

**Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich,** DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

**Judy Smetana** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Chrissy Lewis** CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

**Ali Konak** DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

**Glazova Marina Viktorovna,** CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** associate professor of TSUE

**Sevil Piriyeva Karaman,** PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** t.f.d., profesor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** f.f.d., TDIU professori
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** i.f.d., TDIU professori
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** i. f. n., TDAU dotsenti
**Rustamov Ilhomiddin,** f.f.n., Farg‘ona davlat universiteti dotsenti
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** i.f.d, TDIU dotsenti
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** i.f.f.d., TDIU dotsenti
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** p.f.f.d., (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** i.f.f.d, TDIU dotsenti
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** i.f.d., TMI dotsenti
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay** – Doctor of Economic Sciences, Professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich** – Doctor of Technical Sciences, Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich** – Doctor of Philosophy, Professor at TSUE
**Isakov Janabay Yakubbayevich** – Doctor of Philosophy, Professor at TSUE
**Xalikov Suyun Ravshanovich** – Candidate of Technical Sciences, Associate Professor at TSUA
**Rustamov Ilhomiddin** – Candidate of Technical Sciences, Associate Professor at Fergana State University
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich** – Doctor of Philosophy, Associate Professor at TSUE
**Kamilova Iroda Xusniddinovna** – Doctor of Philosophy, Associate Professor at TSUE
**G‘afurov Doniyor Orifovich** – Doctor of Philosophy (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich** – Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor at Alfraganus University
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich** – Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor at TSUE
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi** – Doctor of Philosophy, Associate Professor at TSUE
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna** – Senior Lecturer at TSUE
**Babayeva Zuhra Yuldashevna** – Independent Researcher at TSUE

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# KIRISH SO‘ZI

**HURMATLI ANJUMAN ISHTIROKCHILARI, MEHMONLAR, HAMKASBLAR, AZIZ TALABALAR!**

Sizlarni Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti tomonidan tashkil etilayotgan mazkur Respublika ilmiy-amaliy anjumanida qutlashdan mamnunmiz.

Qadrli anjuman ishtirokchilari, bugun biz mamlakatimizda biznesni qo‘llab-quvvatlash va iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, hamda bu yo‘nalishdagi xorijiy tajribalarni muhokama qilish uchun to‘plandik.

Habaringiz bor, Prezidentimiz tomonidan 2024-yilni O‘zbekistonda “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”, deb e’lon qilinganida, inson qadrini ulug‘lash va aholimiz manfaatlarini ta’minlash uchun kuchli iqtisodiyot barpo etish asosiy vazifalarimizdan biri ekanligi ta’kidlangan edi.

Shunga ko‘ra, joriy yilda iqtisodiyotimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, tadbirkorlik va xususiy mulk uchun keng imkoniyatlar yaratishga, ilm-fan, innovatsiya, IT kabi sohalarni, “yashil” va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Chunki, barqaror va kuchli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiyot subyektlari uchun, balki jamiyatimizning kelajagi va farovonligi uchun ham juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda, bizning jamiyatimiz - raqamli transformatsiya davriga qadam qo‘ydi. Raqamlashtirish jarayoni - biznes jarayonlaridan tortib, davlat xizmatlariga qadar ko‘plab sohalarni qamrab olmoqda.

Albatta bunday o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyotga hamohang ravishda, qo‘shimcha imkoniyatlarni ochishga va rivojlanishning yangi strategiyalarini ishlab chiqishga keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Lekin shu bilan bir qatorda, iqtisodiyotni raqamlashtirish va bunday sharoitda biznesni rivojlantirish jarayonlarida, o‘ziga xos muammolar va turli savollar ham yuzaga kelmoqda.

Bunday masalalarni o‘rganib, uning yechimlarini topish uchun Toshkent menejment va iqtisodiyot institutining professor-o‘qituvchilari tomonidan ham turli ilmiy tadqiqotlarni olib borish yo‘lga qo‘yilgan. Ularning tadqiqotlari natijalaridan - o‘quv jarayonlarida, ta’lim sifatini oshirish maqsadlarida, keng foydalaniladi.

Bu o‘z navbatida, institutda menejment, iqtisodiyot va axborot texnologiyalari sohalarida tayyorlanadigan malakali mutaxassislarning nafaqat nazariy bilimlarini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham oshirishga hizmat qiladi.

Bundan tashqari, institutda innovatsion dasturlar va loyihalar orqali talabalarni yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ularda raqamli iqtisodiyot va global biznes muhitida raqobatbardosh bo‘lish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Bugungi anjumanda, biz raqamlashtirish va biznesni rivojlantirish jarayonlarida uchraydigan muammolarni chuqur o‘rganishni va ilmiy asoslangan yechimlarni izlashni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘yganmiz.

Shu bilan birga, asosiy anjuman va sho‘ba yig‘ilishlarida mazkur masalalar bo‘yicha xorijiy tajribalarni ham tahlil qilish orqali, biz qanday yechimlar topishimiz mumkinligini muhokama qilamiz.

Bugun sizlarning e’tiboringizga taqdim etiladigan taqdimotlar va fikrlar - bizni zamonaviy iqtisodiyotning yangi talablariga mos keladigan biznes modellarni yaratishga ilhomlantiradi.

Maqsadimiz – bu kabi ilmiy-amaliy uchrashuvlar orqali ilm ahlini va biznes vakillarini bir joyda jamlab, biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkoniyatlar yaratishdan iboratdir.

Biz bu jarayonda, o‘z tajribamizni almashish va birgalikda muammolarni hal qilish uchun yangi g‘oyalarni kashf etishni maqsad qilamiz.

Umid qilamanki, anjumanimiz samarali va foydali bo‘ladi.

Har biringizning ishtirokingiz va hissangiz bu jarayonda juda muhim.

Keling, birgalikda yangiliklarga ochiq bo‘lib, innovatsion yechimlarni izlaylik!

Bugungi anjuman ishiga va unda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilarning ilmiy-ijodiy faoliyatlariga ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz!

**Axmedov Xojiakbarxon Dilshatovich,**
**Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti rektori, i.f.n., dotsent**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

## 1-SHO'BA. ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYASI ASOSIDA IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH


Барқарор ўсишни таъминлашда давлат компанияларини хусусийлаштириш масалалари......14
**Ахмедов Хожиакбархон Дилшатович**

Бинолар ва иншоотлар давлат кадастрини гат технологиялари асосида такомиллаштириш бўйича дастурлар ва ахборот тизимларидан фойдаланиш......18
**Султанов Мансур Қиличович, Нарбаев Шарафатдин Кенгешович, Хасанов Исломхон Илхом ўғли**

Оборонно-промышленный комплекс Российской Федерации: основные тенденции развития системы управления предприятиями в условиях цифровизации......23
**Кузнецов Виктор Павлович, Виноградов Никита Вадимович**

Application of green technologiyes to industrial enterprises: current situation analysis and future perspectives......26
**Juraev Abbosbek**

Ердан самарали фойдаланиш ҳудудларни ривожлантиришнинг устувор омили......30
Чертовицкий
**Чертовицкий Александр Степанович, Нарбаев Шарафатдин Кенгешович**

Финансовая структура предприятия как базис для эффективного управления финансами предприятия......37
**Семенова Елена Вячеславовна, Цымбалов Сергей Дмитриевич**

Технологии блокчейн в управлении цепочками поставок: повышение прозрачности и устойчивости......39
**Брехова В.О., Цыбуцинина И.Е.**

Kimyo sanoati korxonalari faoliyatini rivojlantirishda marketing kommunikatsiyasi strategiyalari......41
**Sabirov Oybek Shavkatbekovich, Muminova Dildora Dilshadovna**

Hududlarda sanoat korxonalarini joylashtirish nazariyalari ва strategik yo'nalishlari......46
**Sobirov Azizbek Avazbekovich**

Innovasion iqtisodiyot sharoitida marketing konsepsiyalarining mohiyati......50
**Asamxodjayeva Shoira Shukurullayevna**

Brendning yetakchi marketing vositasi sifatida kompaniyalar uchun mohiyati ва ahamiyati......53
**Achilova Nargiza Baxtiyorovna**

Korxona bozor faoliyatini rivojlantirishda raqamli marketing strategyalaridan foydalanish......56
**Karimjanova Ra'noxon Maxmudovna, Nosirov Husniddin Xusanboy o'g'li**

Implementation of the cobba doughlas model in the development of the эсономй......58
**Rustamova Mekhrigiyo**

Agrosanoat korxonalari faoliyatida raqamli savdo platformalari......63
**Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li**

Mahsulot diversifikatsiyasi asosida eksport potensialini oshirish yo'llari......67
**Jo'rabayeva Sh.K.**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aglomeratsiyalarning o'rni ва roli......70
**Mardonov Shohruh**

Iqtisodiyotni rivojlantirishda marketingning roli......74
**Anarbayev S.O., Xusenov Sh., Boltayev A., Muxtorov M., Yondoshaliyev A., Abdumalikov N., Tursunaliyev U., Qurbonov B., Toshpo'latov B., Ro'ziboyev D.**

The impact of Uzbekistan's WTO membership on economic development......77
**Sadriddinov Ulugbek Jaloliddin ugli**

Концепции маркетинга для бизнеса и степень их цифровизации в современном обществе ........ 80
**Атакузиева Шахноза Рахматиллаевна**

Приоритетные направления дальнейшего развития бизнеса в Узбекистане ........ 83
**Каюмов Равшан Исмаилович**

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyatlari ва usullari ........ 87
**Xusniddinova Madina Javlon qizi**

State investment policy ........ 89
**Mohinur Rakhimova Dilshod kizi, Rakhimbayeva Diyora**

Интеграциялашган корхоналарда кластерли ёндашувларнинг хориж тажрибалари ........ 91
**Турсунова Зарнигор Рустамовна**

Инновацион ривожланиш шароитида малакали кадрларни тайёрлаш зарурати ........ 94
**Юсупов Қудрат**

## 2-SHO'BA. INNOVATSION MENEJMENT KONSEPSIYALARI ASOSIDA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH

Барқарор ривожланиш ва ҳудудларнинг "яшил" ўсиши: иқтисодий-экологик жиҳатларининг эконометрик таҳлили ........ 98
**Ражабов Н., Адилова М., Қаландарова Г., Хасанова Н.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bilan vositachi eksport tashkilotlarining o'zaro hamkorligi samaradorligini baholash uslubiyoti ........ 108
**Nosirova N.J.**

"Яшил" иқтисодиётни амалга ошириш даражасини баҳолаш хусусиятлари ........ 119
**Хотамов И.С.**

Наманган вилоятида кичик бизнес ва хусусий тадбирколикни ривожланиши. ........ 122
**Каримжанова Р, Носиров Ҳ.Х.**

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish yo'llari ........ 126
**Луқманов Б.М.**

Правовые и организационные аспекты интеграции свободы слова и бизнес-инноваций в цифровую экономику узбекистана ........ 128
**Халилова Нигорахон Акмалджон кизи**

Innovatsion menejment konsepsiyalari asosida biznesni rivojlantirish ........ 130
**Utbasarov D.B.**

Assessing factors affecting the green economy ........ 133
**Rakhimova M.D.**

Xududlarda kichik va yirik korxonalarini innovatsion faoliyatini moliyalashtirish. ........ 135
**Bozorov I., Nematov N.**

Innovatsiyalar - tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning muhim omili ........ 139
**Asamxodjayeva Sh.Sh.**

Роль приватизации государственного имущества в развитии негосударственного сектора экономики в узбекистане ........ 142
**Кадыров Т.А.**

Waste management activities and methods ........ 145
**Azlarova M.**

Статистический анализ взаимосвязи между количеством постоянных и сезонных работников в сельском хозяйстве. ........ 147
**Рустамова М.М.**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

## 3-SHO'BA. MOLIYA VA SOLIQ SOHASIDAGI MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA XORIJIY TAJRIBALAR


Moliya ва soliq sohasidagi muammolar, yechimlar va xorijiy tajribalar .......... 153
**Rafikova M. Sherboobyev D.O'.**

Меҳнат тақсимоти ва ихтисослашув жараёнларига бўлган турли хил ёндошувлар таҳлили .......... 156
**Шарипов К.Б.**

Bank tizimini raqamlashtirish - moliyaviy xizmatlarni rivojlantirish istiqboli ва ustuvor yo'nalishi .......... 158
**Serjanov A.M.**

O'zbekistonda bank xizmatlarining rivojlanish holatiga bir nazar .......... 161
**Serjanov A.M.**

O'zbekiston respublikasida mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyati ва kichik biznesni rivojlantirishidagi ahamiyati .......... 164
**Madaminova N.I.**

Fiscal and monetary policy of the state .......... 167
**Rakhimova M.D., Kasimdjanova B.**

The determinants of financial development in case of central asian countries .......... 170
**Otabaev Y.M.**

Initial research: are the current researched early warning indicators significant in identifying banking crises? .......... 176
**Berdiyorov B. Sh., Masharipov S.M., Berdiyorov J.Sh.**

Тижорат банклари фаолият самарадорлигини ошириш стратегиясини шакллантириш масалалари .......... 182
**Темиров А.А.**

Are the current researched early warning indicators significant in identifying banking crises? .......... 188
**Berdiyorov B.Sh., Masharipov S.M., Berdiyorov J.Sh.**

Anarxik jamiyatda iqtisodiy muammolar va ularga bo'lgan qarashlar .......... 198
**Qurbonov B.A., Muxtorov M.Sh., Yondoshaliyev A., Tursunaliyev U., Abdumalikov N., Boltayev A., Xusenov Sh., Toshpo'latov B., Ro'ziboyev D., Anarbayev S.**

Bojxona to'lovlaridan imtiyoz ва preferensiyalar qo'llashni takomillashtirish yo'llari .......... 200
**Pardaev T. N., Tursinova S.Sh.**

State of play of green finance in Uzbekistan: Opportunities for and barriers to green bond issuance .......... 205
**Boribaeva Z.P.**

Moliya va soliq sohasidagi muammolar yechim va xorijiy tajribalar .......... 210
**Toxirjonova Z.J.**

Тижорат банклари фойдасига солиқ солиш масалалари .......... 212
**Абдуллаев З.А.**

Банк хизматларига ҚҚС солиниш масалалари .......... 214
**Бисенбаев Ш.К.**

Европа тикланиш ва тараққиёт банкининг Ўзбекистондаги лойиҳаларни молиялаштиришдаги ўрни .......... 217
**Джумаев С.М.**

Қишлоқ хўжалигида суғурталаш масалалари .......... 221
**Иномжонова Ф.А.**

Islom moliyasi orqali loyihalarni moliyalashtirish tahlili .......... 223
**Komilov M.M.**

Компаниянинг қимматли қоғозларга молиявий инвестицияларини баҳолаш механизмлари .......... 226
**Караев М.Ю.**

Исломий молия тизимининг ҳусусиятлари ........ 229
**Маматов А.А.**

Эффект дохода и замещения в Европе. ........ 234
**Сулаймонов А.**

Анализ изменений, влияющих на корпоративное управление коммерческих банков Узбекистана ........ 237
**Темиров А.А.**

Ўзбекистон республикасида пул муомаласини бошқаришнинг таҳлили ........ 241
**Астанов Ҳ.З.**

Improving the company’s financial methods ........ 243
**Masharipova Sh.A., Bekbayeva F.B.**

Sug‘urta faoliyati davlat tomonidan tartibga solishning zaruriyati va uning xorij tajribasi ........ 247
**O‘razaliyev J.O‘.**

Mikromoliyaviy xizmatlarning nazariy, normativ-huquqiy asoslari ........ 250
**Axmadaliyeva N.F., Egamberganov M.O.**

Банк хизматларига ққс солиниш масалалари ........ 254
**Бисенбаев Ш.К.**

## 4-SHO‘BA. BIZNESNI BOSHQARISH VA IQTISODIYOT SOHASIDA RAQOBATBARDOSH KADRLAR TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Номарказлаштириш шароитида ҳудудий бошқарув тизимини такомиллаштириш ........ 258
**Қодиров А.М., Ахмедиева А.Т.**

Raqamli iqtisodiyotda elektron pullarning rivojlanish istiqbollari ........ 262
**Axmadaliyeva N.F., Abdujabborov Sh.A.**

O‘zbekistonda faktoring xizmatlari bozorini rivojlantirish orqali iqtisodiyotda to‘lov uzliksizligini ta’minlash yo‘llari ........ 265
**Omonturdiyev O.E.**

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini iqtisodiy-statistik tahlil qilishning zamonaviy usullari (Qashqadaryo viloyati misolida) ........ 269
**Nurxonov N.Q., Xalxadjayev B.B.**

O‘zbekiston Respublikasida 2020 - 2030 yillarga mo‘ljallangan qishloq ho‘jaligini rivojlantirishda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masallari ........ 273
**Djumanov T.A.**

The essence of the black economy ........ 276
**Rakhimova M., Abdusalamova U.**

Аудиторлик текширивунинг норматив-ҳуқуқий асослари ........ 278
**Абдуваитов Б.Б.**

Ҳудудларда тадбиркорлик субъектларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш. ........ 282
**Бозоров И.И.**

Инвестицион лойиҳа рисклари моҳияти ва турлари ........ 289
**Душабоев Ж.Ж.**

Қишлоқ хўжалигида ер муносабатларини тартибга солишнинг ташкилий-иқтисодий механизми ........ 294
**Иноятова М.**

Деҳқон хўжаликлари ерларидан самарали фойдаланишини давлат томонидан рағбатлантириш йўллари ........ 297
**Садуллаев С.**

Олий таълим муассасаларида таълим лойиҳалари самарадорлигини ошириш ........ 301
**Рустамова Л. Р.**

Тикув-трикотаж маҳсулотларига маҳаллий истеъмолчилар талабини сегментлаш асосида маркетинг стратегияларини такомиллаштириш ........ 305
**Топилдиев С.Р.**

Озиқ-овқат маҳсулотлари бозорини давлат томонидан тартибга солиш воситалари ..... 313
**Даминова Ў.М.**

Анализ состояния и тенденций развития свободных экономических зон в Республике Узбекистан ..... 316
**Кадирова И.Б.**

Moliyaviy ва iqtisodiy muhitda qat'iy talablar билан raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ..... 319
**Qodirov F., Mavlonova M.N.**

Pedagogik amaliyot: muammo ва yechimlar ..... 321
**Azim Davron**

Biznes sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari ..... 323
**Israilov P.I.**

Statistical analysis of the number of personnel working in agriculture. ..... 325
**Rustamova M.**

Biznesni boshqarish va iqtisodiyot sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning dolzarb masalalari va uning yechimlari ..... 330
**Xusenov Sh.Sh, Qurbonov B., Toshpo'latov B., Anarbayev S., Ro'ziboyev D., Boltayev A., Muxtorov M., Yondoshaliyev A., Abdumalikov N., Tursunaliyev U.**

Kichik ва o'rta biznes rivojlanishini rag'batlantirishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ahamiyati ..... 333
**Mamarayimova P.P.**

Kichik ва o'rta biznesni qo'llab quvvatlashning xorij tajribasi uni Uzbekistonda qo'llash istiqbollari. ..... 335
**Toshboyev M.M.**

Преимущества внедрения технологии искусственного интеллекта предприятиями малого бизнеса. ..... 337
**Kalanova A.B.**

O'zbekistonda biznes muhitini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish ..... 340
**Yaxshiyeva M.T.**

Спорт менежменти тамойилларининг аҳамияти ..... 343
**Маматов М.**

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligi ..... 348
**Xodjamuratova G.Y.,Yuldasheva D.K.**

Ҳудудларнинг инвестицион имкониятларини оширишда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни кредитлашни такомиллаштириш муаммолари ..... 351
**Бозоров И.И.**

Кичик ва ўрта бизнес учун яратилган МҲХСларини амалга киритиш бўйича кўрсатмалар ва уларни республикамизда қўллашнинг аҳамияти ..... 354
**Муйдинов Э.Д.**

Хизмат кўрсатиш соҳаси корхоналарини инновацион ривожлантририш механизмининг воситалари ва усуллари ..... 357
**Шарипова Б.Б.**

Хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантириш моделлари ..... 366
**Шарипова Б.Б.**

O'zbekistonda uy-joy kommunal xizmatlarida audit tizimini takomillashtirish va raqamlashtirish ..... 369
**Primova Sh.K.**

Transport tashkilotlari moliyaviy holati auditining axborot bazasini tarkibi va mazmuni ..... 372
**Xudayberdiyev B.M.**

Qishloq xo'jaligi korxonalarida inventarizatsiya natijalari tahlilining nazariy asoslari ..... 375
**Ruziyeva D.F.**

Ички аудитда далиллар тўплаш, муҳимлиликни аниқлаш ва рискларни баҳолаш усулларининг аҳамияти ..... 377
**Марданов М.Х.**

Темир йўл транспорти корхоналари фаолиятида ҳисоб сиёсатини қўллашнинг зарурати ... 379
**Хужаев С.С.**

Таълим муассасаларида молиявий ҳисоботнинг ташкилий-услубий асослари ва аҳамияти ... 381
**Исоқулов Ф.Ш.**

Inson resurslarini boshqarish. Karyerani rejalashtirish va rivojlantirish ... 383
**Karimov V.A., Toshtemirov S.G‘., Ibodullayev N.I.**

## 5-SHO‘BA. BIZNES VA BOSHQARUVDA RAQAMLI IQTISODIYOT HAMDA SUN’IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI

Влияние искусственного интеллекта на развитие экономики страны ... 387
**Кузнецов В.П., Назарова Е.Н.**

Hududlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning institutsional asoslari ... 390
**Ma’murov B.X.**

The Impact of Digitalization on Sustainable World economy: Uzbekistan Case ... 394
**Bakhtiyorov A.**

The importance of the digital platforms in the systematic development of the digital economy ... 397
**Tal’atova D.B.**

Digitization of business ... 401
**Rakhimova M.D., Allanazarov A.**

Transport-logistika tizimlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni ... 403
**Matkarimov K.J.**

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishini asosiy yo‘nalishi ... 406
**Karimjanova P., Abduraxmonov J.P.**

Biznes ва boshqaruvda raqamli iqtisodiyot hamda sun’iy intellekt texnalogiyalari ... 409
**Qodirov F.E., Mavlonova M.N.**

Ways of future development of investment project risk insurance ... 411
**Khakimzoda M.Y.**

Sintetik tola ishlab chiqarishni klaster usulida tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi (Buxoro viloyati misolida) ... 413
**Rahmonov Xurshid Xayriddinovich**

Biznesni boshqarishda sun’iy intellekt orqali qaror qabul qilish bosqichlari ... 416
**Ro‘ziboyev D.N., Tursunaliyev U., Abdumalikov N., Boltayev A., Yondoshaliyev A., Muxtorov M., Toshpo‘latov B., Anarbayev S., Qurbonov B., Xusenov Sh.**

Biznesda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish ... 418
**Israilov R.I.**

To‘rtinchi sanoat inqilobi ... 420
**Raxmatullaeva N.N., Abduqaxxorova A.B.**

Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishida zamonaviy axborotlarni o‘rni ... 424
**Samatov Azizjon Abdulaxatovich**

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati ... 426
**Yelchibekov A.P., Asamxodjayeva Sh.Sh.**

Eksportda “Yagona oyna” tizimini qo‘llash istiqbollari ... 428
**Jo‘rabayeva Sh.K.**

Raqamli iqtisodiyot va suniy intellektning o‘zaro integratsiyalashuvi ... 432
**Toshpo‘latov B., Xusenov Sh., Qurbonov B., Boltayev A., Muxtorov M., Yondoshaliyev A., Abdumalikov N., Tursunaliyev U., Anarbayev S., Ro‘ziboyev D.**

Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo‘llari ... 435
**Mirpulatova L.M.**

O‘zbekistonda raqamli oziq-ovqat hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantiruvchi indikatorlar ... 438
**Abduraxmanova Z.T.**

Рақамли иқтисодиёт платформаларининг тузилиши ва ривожланиши ... 442
**Имомова С.Ш.**
Динамика развития искусственного интеллекта. ... 446
**Абдураимова Н.Р.**
Хизмат кўрсатиш соҳасини тармоқлар ва уларнинг таркиби бўйича тақсимлаш модели ... 454
**Шарипова Б.Б.**
Ўзбекистон Республикаси акциядорлик жамиятларида рақамли бошқарувни жорий этиш имкониятлари ... 457
**Закирова Н.А.**
Sanoat sohasini jadal rivojlantirishning oʻziga xos xususiyatlari ... 461
**Ismatulloyeva M.F.**
Regulatory sandboxes and financial market education: empowering smes and retail investors for IPO participation ... 467
**Saydullaev Sh.**
Способы, критерия и методы определение надежных поставщиков для государственных нужд ... 470
**Карриев К.С.**
Chakana savdo korxonalarida reklama faoliyatini tashkil etish ... 478
**Samadov A.N.**
Совершенствование системы управления инновационными проектами ... 485
**Носиров Ж.Ж.**
Emotion detection in customer service: a cnn-based approach to employee engagement ... 491
**Tangirov A.**
Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik jihatlari ... 494
**Luqmanov B.M.**
Ўзбекистонни яшил иқтисодиётга ўтиш йўллари ва истиқболлари ... 500
**Луқманов Б.М.**
A creative idea - the key to developing an innovative ecosystem ... 504
**Alieva Elnara Ametovna**
Sun'iy intelektning hunarmandchilik mahsulotlari bozoridagi oʻrni ... 507
**Ergasheva Aziza Farmonovna**
Oʻzbekistonda oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning hozirgi holati ... 510
**Jurayev Navruz Jurayevich**
What drives financial development in Central Asian Countries ... 514
**Bobojanov Shaxrux Qadamboyevich**
Online Advertising and its impact on consumer behavior ... 518
**Ismailova Khanifajon**
Oʻzbekistonda yaylov yerlaridan samarali foydalanish va ekologik xavfsizligini ta'minlash yoʻllari ... 520
**Axmadaliev Voxob Abduraxmonovich**
Искусственный интеллект: путь в будущее ... 528
**Мурадов Фарход Джоракулович**
History of development and current state of artificial intelligence ... 531
**Davronova Dilora Komiljonovna**
Dzyudo texnik-taktik harakatlari, biomexanik xususiyatlari va ularni assimilyatsiya qilish ... 534
**A.T.Tangriyev**
The impact of China's role in the brics system on the world ... 538
**Zhang Shaojie**
Davlat korxonalarining moliyaviy koʻrsatkichlarini baholash ... 542
**Qarshiyev Nodirbek Olim oʻgʻli**
Qishloq xoʻjaligida "yashil" texnologiyalarni joriy etish va ekologik barqarorlikni ta'minlash ... 544
**Shamshetova Gulraushan**
Postpandemiya davrida mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi va moslashuvchan strategiyalari ... 547
**Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich**

# POSTPANDEMIYA DAVRIDA MEHMONXONALARDA OVQATLANTIRISH XIZMATLARINI TASHKIL ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA MOSLASHUVCHAN STRATEGIYALARI



**Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich**
Mustaqil izlanuvchi, (PhD)
https://orcid.org/0009-0008-0651-4754
h.yaxshiyev81@gmail.com

Annotatsiya: Postpandemiya davri mehmonxona ovqatlantirish xizmatlariga yangicha qarashni taqozo etmoqda. Ushbu maqolada pandemiyadan keyingi sharoitda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etishning iqtisodiy samaradorligi va moslashuvchan strategiyalari tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, ekologik barqarorlik, individual xizmat ko‘rsatish, menyuni optimallashtirish, resurslar boshqaruvi va xizmat sifati kabi omillar asosida zamonaviy yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, muammolar va ularning yechimlari, xodimlar malakasi, ta’minot zanjiri va mijoz ehtiyojlariga moslashuvchanlik asosiy tahlil yo‘nalishlaridan biridir.

Kalit so‘zlar: postpandemiya, mehmonxona ovqatlantirish xizmati, iqtisodiy samaradorlik, moslashuvchan strategiyalar, raqamli transformatsiya, xizmat sifati.

Abstract: The post-pandemic era demands a new approach to hotel catering services. This article analyzes the economic efficiency and adaptive strategies for organizing food services in hotels after the pandemic. It highlights modern approaches such as the implementation of digital technologies, ecological sustainability, personalized service, menu optimization, and resource management. The article also discusses current challenges and their solutions, including staff qualification, supply chain disruptions, and customer-centered flexibility.

Key words: post-pandemic, hotel catering, economic efficiency, adaptive strategies, digital transformation, service quality.

Аннотация: Постпандемийный период требует переосмысления подходов к организации питания в гостиницах. В статье рассматривается экономическая эффективность и адаптивные стратегии в сфере гостиничного питания в условиях после пандемии. Раскрываются современные подходы, включая внедрение цифровых технологий, экологическую устойчивость, персонализированное обслуживание, оптимизацию меню и управление ресурсами. Также проанализированы существующие проблемы и пути их решения, вопросы квалификации персонала, логистические цепочки и гибкость в удовлетворении потребностей клиентов.

Ключевые слова: постпандемия, гостиничное питание, экономическая эффективность, адаптивные стратегии, цифровизация, качество обслуживания.

So‘nggi yillarda global miqyosda yuzaga kelgan COVID-19 pandemiyasi turizm va mehmonxona sanoatining barcha jabhalarida, xususan, ovqatlantirish xizmatlari tizimida ham jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Pandemiya davrida joriy etilgan qat’iy sanitariya va ijtimoiy masofa cheklovlari mehmonxonalardagi ovqat yetkazib berish, bufetlar va restoranlar faoliyatini to‘xtatishga yoki keskin qayta tashkil etishga majbur etdi. Bu holat ushbu xizmat yo‘nalishining an’anaviy ish uslublarini qayta ko‘rib chiqishni, iqtisodiy jihatdan barqaror va shu bilan birga moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqishni taqozo etdi.

Postpandemiya davrida mehmonxona biznesining tiklanishida ovqatlantirish xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Mehmonlar xavfsizligi, xizmat sifati va operatsion xarajatlarni optimallashtirish kabi ustuvor vazifalar mehmonxona restoranlarining yangi tizim asosida qayta tashkil etilishini talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish,

ekologik barqarorlikni ta’minlash, iste’molchi xatti-harakatlariga mos menyu modifikatsiyasi va personalni qayta tayyorlash kabi choralar iqtisodiy va xizmat ko‘rsatish jihatidan yuqori samaradorlikni ta’minlovchi strategik yondashuvlar sifatida e’tirof etiladi.

Pandemiya insoniyat hayotining turli sohalarida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan bo‘lsa, mehmonxona xizmatlari ayniqsa ovqatlantirish yo‘nalishi bunga eng katta ta’sirni boshdan kechirgan segmentlardan biri bo‘ldi. Postpandemiya davrida ushbu sohani tiklash, iqtisodiy jihatdan barqaror va xizmat ko‘rsatish sifatiga ega tizimlarni shakllantirish dolzarb masalaga aylandi. Bugungi kunda mehmonxona restoranlarida ovqatlantirish xizmatlarini tashkil etish nafaqat gastronomik ehtiyojni qondirish, balki xavfsizlik, operatsion tejamkorlik va moslashuvchanlik mezonlariga javob berishi kerak.

Pandemiya davridagi asosiy muammolardan biri bo‘lgan ijtimoiy masofa va gigiyena talablarining qat’iyligi ovqatlanish xizmatlarida xizmat ko‘rsatish shakllarini keskin o‘zgartirdi. An’anaviy ochiq bufetlar, ochiq joylardagi to‘plangan xizmatlar o‘rnini individual xizmatlar, kontakt bo‘lmagan yetkazib berish (contactless delivery), raqamli buyurtma tizimlari va oldindan tayyorlangan menyular egalladi. Bu esa texnologik moslashuvni talab qildi va aksariyat kichik va o‘rta mehmonxonalar uchun jiddiy moliyaviy bosimga sabab bo‘ldi.

Hozirgi holatda, mehmonxona ovqatlantirish xizmatlari uch asosiy yo‘nalishda rivojlanmoqda: birinchisi – raqamli transformatsiya, ikkinchisi – ekologik barqarorlikka asoslangan yondashuvlar, uchinchisi – mijozga yo‘naltirilgan servis modelining shakllanishi. Birinchi yo‘nalishda, mobil ilovalar orqali buyurtma qilish, QR-kod orqali menyuni ko‘rish, onlayn to‘lov tizimlari joriy etilgan. Bu xizmatlar nafaqat xavfsizlikni ta’minlaydi, balki xizmat ko‘rsatish tezligini oshiradi va insoniy omil bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Biroq, bu tizimlar zamonaviy infratuzilma va raqamli savodxonlikni talab qiladi, bu esa ko‘plab mehmonxonalar uchun hali muammo bo‘lib qolmoqda.

Ikkinchi yo‘nalish, ya’ni ekologik barqarorlikka asoslangan ovqatlanish xizmatlari, mahalliy mahsulotlardan foydalanish, oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish, biologik parchalanadigan qadoqlardan foydalanish kabi choralarga asoslangan. Bu yondashuv nafaqat ekologik xavfsizlikni oshiradi, balki xarajatlarni ham qisqartiradi, chunki mahalliy yetkazib beruvchilar bilan ishlash logistika xarajatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, mehmonlar orasida ekologik ongli iste’molchilar soni oshayotgani, bu kabi yondashuvlarni tijorat nuqtayi nazaridan ham manfaatli qiladi.

Uchinchi yo‘nalish esa mijozga yo‘naltirilgan servis modelidir. Bu modelga ko‘ra, mehmonning individual ehtiyojlari, allergik holatlari, diniy yoki madaniy ovqatlanish cheklovlari inobatga olinadi. Personal tayyorlangan menyular, individual xizmat ko‘rsatish, yetkazib berishning mos vaqtlarini tanlash imkoniyati bu yondashuvni samarali qiladi. Bunday servis darajasiga erishish esa xodimlarning doimiy malakasini oshirish, xizmatlar monitoringini yuritish va mehmon fikr-mulohazalarini real vaqtda tahlil qilish vositalarining mavjud bo‘lishiga bog‘liq.

Shuningdek, postpandemiya davrida ovqatlantirish xizmatlari iqtisodiy jihatdan tejamkor va moliyaviy samarador bo‘lishi zarurligi ham kun tartibiga chiqdi. Ayniqsa mehmonxonalar daromadining muhim qismini tashkil etuvchi restoran va ovqatlanish xizmatlarining moliyaviy natijalari endi batafsil monitoring ostida olib boriladi. Shu sababli, menyuni optimallashtirish, yuqori rentabellikka ega mahsulotlarga urg‘u berish, omborxona boshqaruvini avtomatlashtirish kabi choralarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda (1-rasm).




1-rasm. Postpandemiya davrida mehmonlar uchun mehmonxona ovqatlanish xizmatlarining afzalliklari[1].

1 https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/frsv.2022.862099/full

Yuqoridagi grafik postpandemiya davrida mehmonlarning mehmonxona ovqatlanish xizmatlariga bo‘lgan munosabati va ularning afzallik beruvchi jihatlarini foizlik ko‘rsatkichlar asosida aks ettiradi. Grafikda to‘rtta asosiy mezon ko‘rib chiqilgan: ovqatlanish xizmati mavjudligi, raqamli menyu va kontakt bo‘lmagan to‘lov, ekologik toza taomlarga tayyorlik hamda ovqat yetkazib berish xizmatlarining mavjudligi.

Eng yuqori ko‘rsatkich – 73% – mehmonxonada ovqatlanish xizmati mavjud bo‘lsa, mehmonlarning qolish ehtimoli oshishini bildirgan. Bu, ovqatlanish xizmatining mehmonxona tanlashda muhim omilga aylanganini ko‘rsatadi. Undan keyingi o‘rinda 68% respondent raqamli menyu va kontakt bo‘lmagan to‘lov tizimlarini afzal ko‘rishini ta’kidlagan bo‘lib, bu pandemiyadan so‘ng xavfsizlik va gigiyena masalalari mehmonlar uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ekologik jihatdan toza va barqaror taomlarga tayyorlik darajasi 59% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich mehmonlar orasida sog‘lom ovqatlanish va ekologik ongli iste’molchilar soni oshib borayotganini anglatadi. So‘nggi ko‘rsatkich – 44% – ovqat yetkazib berish xizmatlari mehmonxona tanloviga ta’sir qilishi mumkinligini bildirgan. Bu xizmat turining ham dolzarbligi mavjud, lekin u boshqa omillarga nisbatan nisbatan pastroq baholangan.

Umuman olganda, grafikdan ko‘rinadiki, mehmonxona ovqatlanish xizmatlari endilikda nafaqat gastronomik ehtiyojlarni, balki xavfsizlik, texnologik qulaylik va ekologik qadriyatlarni ham hisobga olgan holda taklif etilishi zarur. Bu jihatlar mehmonlarning qaror qabul qilish jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ushbu xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Postpandemiya davrida ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, xodimlar yetishmovchiligi, ayniqsa malakali oshpazlar va xizmat ko‘rsatish xodimlariga bo‘lgan talab oshgan. Buning sababi pandemiya davrida ko‘plab kadrlar sektorni tark etgani va boshqa yo‘nalishlarga o‘tgani bilan bog‘liq. Yana bir muhim muammo – bu mahsulotlar narxining o‘zgaruvchanligi, ta’minot zanjiridagi uzilishlar va importga bog‘liqlik. Bular iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muammolar yechimi sifatida bir nechta chora-tadbirlar taklif etilmoqda. Birinchidan, mahalliy ta’minot zanjirlarini mustahkamlash va importdan maksimal darajada voz kechish orqali barqarorlikni ta’minlash mumkin. Ikkinchidan, mehmonxona restoranlari uchun maxsus subsidiyalar va soliq yengilliklarini joriy etish orqali ularning moliyaviy yukini kamaytirish zarur. Uchinchidan, mehmonxona sohasida bandlikni tiklash maqsadida qisqa muddatli professional tayyorgarlik dasturlarini yo‘lga qo‘yish lozim.

Shuningdek, ovqatlantirish xizmatlarini boshqarishda analitik yondashuvdan foydalanish, ya’ni mijozlar xatti-harakatlarini, talab tebranishlarini va narx sezgirligini tahlil qilish orqali menyu siyosatini moslashtirish mumkin. Raqamli texnologiyalar orqali real vaqtda savdo va xarajatlar monitoringi yuritilishi, operatsion samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mehmonxonaning umumiy daromadiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, mehmonxona restoranlarining bozor talabi bilan moslashuvchan ishlashi, ya’ni seshanba kuni kam mehmon bo‘lsa, menyuni qisqartirish, dam olish kunlari esa kengaytirish, yetkazib berish xizmatini haftaning faqat ma’lum kunlarida yo‘lga qo‘yish kabi strategiyalar orqali operatsion xarajatlar samarali boshqarilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Postpandemiya davrida mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini samarali tashkil etish dolzarb strategik vazifaga aylandi. Mazkur soha faqatgina oziq-ovqat bilan ta’minlash emas, balki mijoz xavfsizligini, xizmat ko‘rsatish madaniyatini, iqtisodiy tejamkorlikni va raqamli transformatsiyani o‘zida mujassam etgan kompleks tizim sifatida qayta shakllanmoqda. Mavjud muammolar, jumladan, xodimlar tanqisligi, mahsulot narxlarining o‘zgaruvchanligi va texnologik infratuzilma yetishmovchiligi sektor oldida turli sinovlarni yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, sohaga integratsiyalashgan yondashuv zarur.

Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan yaqin hamkorlik, raqamli yechimlarning bosqichma-bosqich joriy etilishi, iste’molchilarning xatti-harakatlarini tahlil qilish asosida menyu va xizmat strategiyasini shakllantirish bu yo‘nalishda ijobiy samara beradi. Bundan tashqari, xodimlar malakasini oshirish va qisqa muddatli kasbiy tayyorgarlik dasturlarini kengaytirish, davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish, ekologik va sog‘liqni saqlash standartlariga mos keluvchi xizmat tizimini yaratish orqali sohaga barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta’minlash mumkin. Mehnat samaradorligi va mijoz qoniqishini oshirishga qaratilgan bu kabi kompleks yondashuvlar mehmonxona ovqatlantirish tizimining kelgusi rivoji uchun asosiy yo‘nalish bo‘lib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. M. Mamadaliev. Turizm sanoatida ekologik yondashuvlar. – T.: “Fan va taraqqiyot”, 2022. – 192 b.
2. K. Nurmatova. Turizm xizmatlarida sifat menejmenti. – T.: “Noshir”, 2020. – 210 b.
3. M.J. Stipanuk. Hospitality Facilities Management and Design. – Michigan: Educational Institute, 2018. – 500 p.
4. R. Wood. Hotel Accommodation Management. – London: Routledge, 2017. – 264 p.
5. Peter Jones, Andrew Lockwood. The Management of Hotel Operations. – London: Cengage Learning, 2018. – 360 p.

6. Raymond S. Schmidgall. Hospitality Industry Managerial Accounting. – Michigan: AHLEI, 2016. – 408 p.
7. John Walker. Introduction to Hospitality. – New York: Pearson, 2021. – 480 p.
8. C. Holloway, R. Humphreys. The Business of Tourism. – London: Pearson Education Limited, 2022. – 504 p.
9. https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/frsrv.2022.862099/full

IQTISODIYOT ЭKOHOMИKA ECONOMY

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokr ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

## 2024. № 7-maxsus son

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.